

---

## Farg'onada «Ezgulik – shiorimiz, ma'rifat – qurolimiz!» shiori ostida madaniy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlari o'tkazilmoqda.

Shunday ma'rifiy targ'ibot karvoni Beshariq tumanidagi Madaniyat markazida bo'lib o'tdi. Tadbirga mahallada istiqomat qilayotgan xotin-qizlar taklif etildi.

Tadbirda poytaxtimizdan tashrif buyurgan olimlar, yozuvchi-shoirlar, san'atkorlar, "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati a'zolari ishtirok etdi. So'zga chiqqanlar muhtaram Prezidentimizning 8 mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan o'tkazilgan marosimda so'zlagan nutqi hamda mamlakatimiz ayollariga qilgan murojaatlarini mazmun mohiyati haqida so'zladilar.

Tadbirda mehmonlar tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar yig'ilganlarga bahoriy kayfiyat bag'ishladi.

2024-03-15 12:11:47